

---

## Hokim yordamchilari tomonidan shahrimiz aholisi uchun 100 kg osh damlandi

Bugun "To'qimachilar" mahalla fuqarolar yig'inida shahrimizda faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari tomonidan ham milliy taomimiz bo'lgan osh tayyorlandi.

Shahrimizda o'zlarining mashaqqatli mehnatlari bilan obodonlashtirish hamda komunal sohada faoliyat yuritayotgan hodimlarga ehtirom ko'rsatildi.

Milliy taomimiz ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalarga ulashildi, yakka-yolg'izlar, o'zgalar parvarishiga muhtoj, nogironligi bo'lgan hamda bemor fuqarolarning holidan xabar olindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati  
2023-01-23 09:20:22